



2018 yilning yanvar-avgust oylarida Qashqadaryo viloyatining sanoat ishlab chiqarishi


RAQAMLAR:

- Sanoat ishlab chiqarish hajmi **8566,6 mlrd.so'mni**, o'sish **8,7 % ni** tashkil etdi.
- Iste'mol tovarlari ishlab chiqarish **1703,2 mlrd.so'mni** tashkil etdi.
- Iste'mol tovarlarning jami sanoat ishlab chiqarish hajmidagi ulushi - **19,9 %**
- Sanoat ishlab chiqarishda kichik biznesning ulushi – **21,5 %**

Dastlabki ma'lumotlar bo'yicha 2018 yilning yanvar-avgust oylarida viloyat korxonalaridan 8566,6 mlrd.so'mlik sanoat mahsulotlari ishlab chiqarilgan bo'lib, o'tgan yilning tegishli davriga nisbatan o'sish sur'ati 108,7 % ni tashkil etdi.

Jami sanoat ishlab chiqarish hajmi o'shishining asosiy omili bo'lib, ishlab chiqaradigan (qayta ishlash) sanoatida ishlab chiqarish hajmining 14,3 % ga, tog'-kon sanoati va ochiq konlarni ishlashning - 1,4 % ga, elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni kondititsiyalashning 6,6 % ga va suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni utilizatsiya qilishning – 281,5 % ga o'sishi hisoblanadi.


2018 yilning yanvar - avgust oylarida asosiy iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha sanoat ishlab chiqarish tarkibi



Iste'mol tovarlari ishlab chiqarish.


Iste'mol tovarlar ishlab chiqarish hajmi 1703,2 mlrd.so'mni tashkil etdi va 2017 yilning yanvar-avgust oylariga nisbatan 102,2 % ni tashkil etdi, jami sanoatdagi ulushi esa 19,9 % ni tashkil etdi.

2018 yilning yanvar-avgust oylarida iste'mol tovarlari ishlab chiqarish hajmi va o'sish sur'atlari



2018 yil yanvar - avgust oylarida iste'mol tovarlari tarkibida oziq-ovqat tovarlari ishlab chiqarish 54,2 foizni va nooziq-ovqat tovarlari ishlab chiqarish 45,8 foizni tashkil etdi.


Yanvar-avgust oylarida iste'mol tovarlari ishlab chiqarish hajmining tarkibi, % da



Hududlarning sanoat ishlab chiqarishi.

Viloyat sanoat ishlab chiqarish hajmi tarkibida eng ko'p Muborak (viloyat sanoat ishlab chiqarish hajmning 29,6 % ulushini), G'uzor (21,0 %) tumanlari, Qarshi shahri (12,4 %), Nishon (9,6 %) va Qarshi(5,3 %) tumanlari hissasiga to'g'ri kelmoqda.


2018 yilning yanvar-avgust oylarida shahar va tumanlarning jami sanoat ishlab chiqarish hajmidagi ulushi, % da



Shu bilan birga eng kam ulush Chiroqchi (1,4 %), Mirishkor (1,6 %), Yakkabog' (1,7 %), Shahrisabz (1,8 %) va Kitob (1,8 %) tumanlariga to'g'ri keladi.


Sanoat mahsulot ishlab chiqarish bo'yicha Qarshi tumani (2017 yilning yanvar-avgust oylariga nisbatan 242,4 % ga), Mirishkor (126,9 % ga) , Dexqonobod (126,9 % ga), Yakkabog' (125,4% ga), Koson (117,8 % ga) Qamashi (111,8 % ga) tumanlarida va Qarshi(115,6 % ga) shahrida sezilarli darajada ishlab hiqarish hajmining oshishi ta'minlandi.

2018 yilning yanvar-avgust oylarida shahar va tumanlarning jami sanoat ishlab chiqarish o'sish sur'atlari, % da



Aholi jon boshiga sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishning tabaqalanishi tahlili Muborak tumanida (30443,5 ming so'm), G'uzor tumanida (9135,7 ming so'm), Nishon tumanida (5610,1 ming so'm) va Qarshi shahrida (3952,6 ming so'm) o'rtacha viloyat darajasi ko'rsatkichidan (2709,0 ming so'm) ancha yuqoriligini ko'rsatmoqda.

2018 yilning yanvar - avgust oylarida hududlarda aholi jon boshiga sanoat mahsulotlari va iste'mol tovarlari ishlab chiqarish hajmi, ming so'mda




Sanoat ishlab chiqarishda kichik biznesning hissasi.

Kichik tadbirkorlik sub'ektlari sanoat ishlab chiqarishda keskin faollashgani natijasida ular tomonidan sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmini o'tgan yilning mos davriga nisbatan 7,0 % ga oshishini ta'minladi, o'z navbatida kichik biznesning jami sanoat ishlab chiqarishdagi ulushi esa 21,5 % tashkil etmoqda.

Hududlar kesimida kichik biznesning sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishdagi eng yuqori ulushi Kitob tumanida (jami sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishdagi ulushi 100,0 %), Yakkabog` tumanida (90,7 %), Chiroqchi tumanida (87,8 %), Shaxrisabz tumanida (80,6), Qarshi (60,1%) va Shaxrisabz (53,8 %) shaharlarida kuzatildi. Shu bilan birga, eng kichkina ulush Muborak tumanida (1,5 %), G'uzor tumanida (2,3 %), Nishon tumanida (5,3 %) va Dehqonobod tumanida (11,0 %) kuzatildi.


2018 yilning yanvar-avgust oylarida hududlar bo'yicha kichik biznesning sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishda ulushi, % da



Faoliyat yuritayotgan va yangi tashkil etilgan sanoat korxonalari.

Bugungi kunda viloyatda 2 mingdan ziyod sanoat korxonalari faoliyat ko'rsatayotgan bo'lib, ulardan 505 tasi Qarshi shahrida, 333 tasi Kitob tumanida, 238 tasi Shaxrisabz shahrida, 212 tasi Yakkabog` tumanida, 178 tasi Qarshi tumanida, 153 tasi Chiroqchi tumanida, 140 tasi Qamashi tumanida, 107 tasi Shaxrisabz tumanida, 125 tasi Koson tumanida, 89 tasi Guzor tumanida, 69 tasi Kasbi tumani, 50 tasi Muborak tumani, 52 tasi Nishon tumanida, 41 tasi Dehqonobod tumanida va 50 tasi Mirishkor tumanlarida joylashgan.

2018 yil 1 sentyabr holatiga faoliyat yuritayotgan va yangi tashkil etilgan sanoat korxonalari soni



Joriy yilning yanvar-avgust oylarida viloyatda 317 ta yangi sanoat korxonalari tashkil etilgan bo'lib, ulardan 70 tadan ortiq Qarshi shahriga, 40 tadan ortiq Chiroqchi tumaniga, 30 tadan ortiq Kitob va Qamashi tumanlariga, 20 tadan ortiq Qarshi, Yakkabog` tumanlariga va Shaxrisabz shahriga, 10 tadan ortiq Shaxrisabz, Koson, Guzor va Kasbi tumanlariga to'g'ri keladi.

